

Universitetda 2024/2025-o‘quv yili uchun yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini topshirayotgan va bitiruv malakaviy ishlari himoyalari amalga oshirayotgan talaba yoshlar orasida uchrashuvlar tashkil etildi

Joriy yilning 10-17-iyun kunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi yig‘ilishida berilgan topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash va oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish hamda ularda halollik vaksinasi orqali korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida 2024/2025-o‘quv yili uchun yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini topshirayotgan va bitiruv malakaviy ishlari himoyalari amalga oshirayotgan universitetning “Ijtimoiy fanlar”, “O‘zbek filologiyasi”, “Sport faoliyati” va “Tarix” fakultetlari talaba yoshlari orasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”, “Korrupsiya “Jamiyat tanasidagi saraton”” mavzularida uchrashuvlar tashkil etildi.



Tadbirlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi Adliya vazirligi Termiz shahar Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti – Nazarov Vohid Raxmonberdiyevich taklif qilindi.

Tadbirlar jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etilishi oldini olish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonunlarining, "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4761-son Prezident Qarorining, "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Prezident Farmonining, "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son Prezident Qarorining, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasining 829-sonli qarorining, Termiz davlat universiteti Kengashining 2023-yil 26-avgustdagi 1-son yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Termiz davlat universitetining ichki tartibi qoidalari" va "Odob-axloq kodeksi" hamda boshqa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar mazmun — mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.



Shuningdek, talabalarga manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi — 1161 tezkor telefon raqami, Davlat xavfsizlik xizmatining — 1520 tezkor telefon raqami va O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining — 1253 tezkor telefon raqami hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari aloqa kanallari xususida ma'lumot berildi.



Universitetda 2024/2025-o'quv yili Yozgi semestrida qayta o'qiyotgan talaba yoshlar orasida uchrashuvlar tashkil etildi

Joriy yilning 18-iyun kuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi yig'ilishida berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash va oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish hamda ularda halollik vaksinasi orqali korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida 2024/2025-o'quv yili Yozgi semestrida qayta o'qiyotgan universitet 1-kurs talaba yoshlari orasida "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiya "Jamiyat tanasidagi saraton"" mavzularida uchrashuvlar tashkil etildi.



Tadbirlar jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etilishi oldini olish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-sonli Qonunlarining, “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4761-son Prezident Qarorining, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Prezident Farmonining, “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–147-son Prezident Qarorining, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Vazirlar Mahkamasining 829-sonli qarorining, Termiz davlat universiteti Kengashining 2023-yil 26-avgustdagi 1-son yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Termiz davlat universitetining ichki tartibi qoidalari” va “Odob-axloq kodeksi” hamda boshqa korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar mazmun — mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.



Shu bilan birga ma'ruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muvosiis munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqligini aytib o'tishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkorligini ta'kidlab o'tishdi.

Shuningdek, talabalarga manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi — 1161 tezkor telefon raqami, Davlat xavfsizlik xizmatining — 1520 tezkor telefon raqami va O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining — 1253 tezkor telefon raqami hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari aloqa kanallari xususida ma'lumot berildi.



Termiz davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha seminar tashkil etildi

Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo'limi tashabbusi bilan iqtisodiy bo'lim xodimlari ishtirokida navbatdagi seminar yig'ilishi o'tkazildi.

Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengash yig'ilishida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuklatilgan vazifalar yuzasidan ma'lumotlar yetkazildi.

Shuningdek, Prezidentning 2025-yil 21-apreldagi PF-71-sonli Farmoni – “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida” hamda PQ-147-sonli Qaror – “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” hujjatlarining mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi.



Seminar ishtirokchilariga korrupsiyaning oldini olish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga qat'iy amal qilish zarurligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari seminarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori talablaridan kelib chiqib, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan zarur chora-tadbirlar xususida ta'kidlab o'tildi.

